

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali - lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi - ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Нозлия Нормуродова

Теоретические вопросы антропоцентризма в контексте развития современной лингвистической науки.....6

Muqaddas Abdurahmanova

O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektda tadqiq etish asoslari.....26

Elçin İbrahimov

Günümüzde Türk Devlet ve Topluluklarında Ortak İletişim Dili Sorunu...44

Eldar Asanov

Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, ijtimoiy notenglik va xotira kategoriyalarini tushunish manbasi sifatida.....57

Hasamuddin Hamdard

Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri.....77

Adabiyotshunoslik

Oybarchin Abdulhakimova

Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi.....85

Mahira Hajiyeva

Ufq tushunchasi hamda adabiyotda utopik va distopiya tushunchalarining kesishishi.....100

Sotsiologiya. Psixologiya

Sabohat Kalanova

O'zgaruvchan jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining differentsiatsiyasi.....112

Tarix. Manbashunoslik

Azizullah Aral

Qadim Xurosondagi Navoiy obidalarining bugungi ko'rinishi.....124

CONTENT

Linguistics

Nozliya Normurodova

Theoretical Issues of Anthropocentrism in the Context of the
Development of Modern Linguistic Science.....6

Muqaddas Abdurahmanova

Basics of Research of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish
Languages in the Linguocognitive Aspect.....26

Elchin Ibrahimov

The Problem of Common Communication Language in Turkish
State and Community Today.....44

Eldar Asanov

Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the
Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory
among Early Medieval Turks in Central Asia.....69

Hasamuddin Hamdard

The influence of the Press on the Uzbek Language and Literature of
Afghanistan.....77

Literature

Oybarchin Abdulhakimova

The commonality of Abdulla Oripov's lyrical Conception with the
literary-aesthetic environment.....87

Mahira Hajiyeva

Concept of Horizon and the Intersection of Utopian and Dystopian
Visions in Literature.....100

Sociology. Psychology

Sabohat Kalanova

Differentiation of Processes of Generational Exchange in a
Changing Society.....112

History. Source studies

Azizullah Aral

Today's View of Navoi Monuments in Ancient Khorasan.....124

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE

Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi

Oybarchin Abdulhakimova¹

Abstrakt

Maqolada Abdulla Oripov estetik qarashlari takomilida ulug' salafarlari va zamondoshlari hamda adabiy davrasining ta'siri tadqiq qilingan. Shoir Abdulla Oripov adabiy-estetik konsepsiyasi Cho'lpon va Abdulla Qodiriydan Usmon Nosir va G'afur G'ulomgacha, Oybek va Hamid Olimjondan Mirtemir va Erkin Vohidovgacha bo'lgan salafarlari va davradoshlari poetik olami bilan chambarchas bog'liq ekani tahlillar asosida dalillangan. Shoirning ijodiy an'analarni yangilagani va takomilga yetkazgani, she'riyatimizni yangi obraz va tashbehlar, badiiy kashfiyotlar bilan boyitgani, ijodda maktab yaratgani asoslangan.

Kalit so'zlar: *badiiy-estetik tafakkur, ijodiy an'ana, sintez, adabiy-estetik qarash, badiiy talqin, ijod laboratoriyasi, differensial munosabat, poetik kashfiyot.*

Kirish

Abdulla Oripov – fenomenal ijodkor. U yangi zamon o'zbek she'riyatini badiiy-estetik tafakkurning yetib bo'lmas ufqlariga yuksaltirdi. Lekin bu fazilatlar Xudo bergan iste'dodni kamolga yetkazish uchun salafarlar ijodiy an'analarni o'rganish, asarlarida milliy poetik tafakkurda o'zigacha erishilgan yutuqlarni sintez qilish zaruratini istisno etmaydi. Zamonamizning buyuk shoiri Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari takomili, shu jihatdan, Cho'lpon, Oybek va Mirtemirdan Erkin Vohidovgacha bo'lgan davradoshlari poetik olami bilan chambarchas bog'liqdir.

¹Abdulhakimova Oybachin Nurboy qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: abdulhakimovaoybachin@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

Iqtibos uchun: Abdulhakimova, O.N. 2024. "Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 87 – 99.

Asosiy qism

Cho'lpon milliy she'riyatni yangilagan ijodkorlardan. Shak-shubhasiz, Abdulla Oripov ham Cho'lpon ijodini yuqori baholaydi, uning she'riyatdagi an'analarini o'rganadi, takomilga yetkazadi. "Adolat ko'zgusi" she'rida Cho'lpon qismatiga ishora qilib yozgan mana bu satrlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Garchi barchamizga taqdir hukmron,
Garchi teng qoshida chinordir, xasdir,
Pushkin atalmagay har bitta qurbon,
Har bir qamalgan ham Cho'lpon emasdir...*

Ayni bir she'rda ikki ijodkor nomi orqali Abdulla Oripov mumtoz she'riyatga xos talmeh san'ati imkoniyatidan mahorat bilan foydalanadi. Biri rus she'riyatining atoqli namoyandasi Pushkin bo'lsa, ikkinchisi o'zbekning ulug' shoiri Cho'lpondir. Shoir taqdir mezonini ayni shu ikki buyuk ijodkor nomi bilan bog'liq holda talqin etadi. Taqdir kimga nimani ravo ko'rishi odamzod anglashi qiyin bo'lgan sinoat. Chunki taqdir oldida chinor ham, xas ham tengdir. Lekin yana bir oydin haqiqat shundan iboratki, ijodkor va shaxs sifatida Pushkin yoki Cho'lpon darajasiga yetish hammaga ham nasib etavermaydi. Abdulla Oripov bu ikki shoirning fojeiy qismatiga ishora qilish orqali bashariyat badiiy-estetik tafakkuri takomilida ularning o'rni beqiyos ekanini san'atkorona ifoda etadi.

Shoirning "Olomonga" she'rida "Cho'lpon otilganda qayoqda eding?", degan misra bor. Ijodkor asarlarining istiqlolgacha bo'lgan nashrlarida bu satrda Cho'lpon o'rnida ispan shoiri Lorka ismi bo'lgan. Abdulla Oripov buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: "Dastlabki nashrlarda "Lorka otilganda qayoqda eding?" degan jumla bor edi. Kuppa-kunduz kuni buni o'zim o'sha joyga tuflab yopishtirib qo'yanman. Chunki u yerda Cho'lponning nomi o'tmagan va bu olomonchilik bitta xalqqa bog'lanib qolmasin, u butun yer yuzida bor, deyishgan. Shundan keyin Ispaniyaning Lorkasini o'sha joyga qo'yanman. Aslida, bu yerda gap olomon haqida ketyapti va O'zbekiston misolida. Shunday ekan, bu yerda Lorkaga nima bor? Shuning uchun Cho'lpon o'zining joyiga qaytib keldi... Men bu yerda ulug' xalqimga tanbeh berish niyatida emasman, bunday darajaga hech kim chiqqan emas. Men ham bunga hech qachon da'vo qilmayman. Lekin shu xalqning obro'sini to'kadigan olomonchilikning oldini olish kerak, deb o'ylaganman" [Oripov 2014, 239-240].

Abdulla Oripov she'rlarida millatparvar shoir Cho'lponni

bu qadar ehtirom bilan tilga olishi, uning ijodini teran bilishi natijasidir. Cho'lpon "Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir", deya xalqning qudratini o'ziga xos badiiy talqin etgan bo'lsa, Abdulla Oripov siyosiy qatag'onlar, mafkuraviy tazyiqlar natijasida shakllangan olomonchilik ruhiyatidan iztirob chekkan va olomonning xalq bo'lishini orzu qilgan edi. Cho'lpon erklik yulduzi haqida yozib, uni "tutqun ellar uchun samo qunduzi" deya ta'riflagan edi. Go'ristonday qorong'i, zim-ziyo bo'shliqda adashgan yo'lchi timsolida istibdod zulmatida yo'lsiz qolgan ona Turkistonni tasvirlab, uch-to'rtta yulduzning o'chmasdan yarqirab nur sohib turishini qutulish tongidan mujda deya qabul qilgan hamda milliy ozodlik orzusini badiiy talqin etgan edi. Abdulla Oripov esa bu obrazga ko'p murojaat etishi omillarini: "Janubda, bulutsiz qop-qora osmonda yulduzlar charaqlab ko'rinadi. Butun ruhimni, qalbimni maftun qilgan o'sha manzaralar. Yulduzlarning o'zi hamisha, hamma xalqlarda poeziyaning asosiy qahramoni, obrazi bo'lgan", deya izohlagan edi. Shoirning ko'kdagi yulduzlarni Ulug'bek ko'zidagi yoshga mengzagani zamirida ham teran mohiyat mujassam. Alqissa, ikki ulug' shoir ijodida bir-birini mutlaq takrorlamaydigan bunday parallellizmlar ko'p ekani zamirida Abdulla Oripovning Cho'lpon ijod laboratoriyasini chuqur bilishi, ulug' salafi tajribalarini o'rgangani holda yangi badiiy kashfiyotlar qilgani bilan izohlash mumkin.

Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlari takomilida o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ijodi ham o'ziga xos o'ringa ega. Shoirning "Abdulla Qodiriy xotirasiga", "Abdulla Qodiriyning so'nggi sabog'i", "Qodiriy" she'rlari buning yaqqol dalilidir. "Abdulla Qodiriy xotirasiga" she'rida shoir, jumladan, mana bunday yozadi:

*Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,
Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun.
Agarda koinot tegirmon bo'lib,
Olamni yanchsa ham qolgay u butun.*

Badiiy ijodning asosi asl iste'dod ekani haqidagi adabiy-estetik konsepsiya she'rning mohiyatini tashkil etadi. Asl iste'dod uchun zavol yo'qligini shoir teran hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish orqali asoslaydi. Ya'ni shoir nazdida, koinot tegirmon bo'lib olamni yanchganda ham asl iste'dod butun qoladi, u zavol bilmaydi.

"Abdulla Qodiriyning so'nggi sabog'i" she'rida:

Biringiz Otabek, biringiz Kumush,

*Doim yashnab tursin sevgingiz bog'i.
Haqiqiy muhabbat bilmasin so'lish,
Ustoz Qodiriyning bu ilk sabog'i -*

kabi misralarni yozar ekan, shoir "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek va Kumush obrazlari misolida sevgi bog'i doim yashnab turishi, haqiqiy muhabbat so'lish bilmasligi zarurat ekani haqidagi hayot falsafasini betakror badiiy talqin etadi. Ushbu hayot falsafasi Qodiriyning so'nggi sabog'i ekaniga urg'u beradi. Umuman, falsafiy tafakkurni obrazlar vositasida ifodalash va o'z navbatida, poetik obrazni hayot falsafasi bilan mutanosib tasvirlash Abdulla Oripov she'riyatining asosini tashkil etadi. Quyidagi satrlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Adib yuragida alamlar qat-qat,
Lekin bittasi bor, o'chmasdir dog'i.
Jonni tik ozodlik yo'lida faqat,
Bu esa ustozning so'nggi sabog'i.*

She'rning ikkinchi bandida ozodlik ruhi Abdulla Oripov badiiy-estetik idealining asosini tashkil etishi o'z ifodasini topgan. Ayni shu ijodiy niyatni poetik suvratlantirish uchun shoir Abdulla Qodiriy yuragidagi qat-qat alamlardan so'z ochadi. Lekin ulardan biri - ozodlik yo'liga jonni tikish zarurligi adibning so'nggi sabog'i sifatida talqin qilinadi. Adabiyotshunos Jabbor Eshonqulning: "Abdulla Qodiriy Vatan ozodligi, elning ravnaqi, millat o'zligini anglash yo'lida jonini fido qilgan, boqiy va o'lmas asarlar yaratgan adibdir" [Eshonqulov 2021, 153], degan so'zlari she'rdagi talqin bilan uyg'undir. Abdulla Qodiriy asarlaridagi Vatan va millatga muhabbat talqini Abdulla Oripov she'riyatida yangi badiiy kashfiyot darajasiga yuksalgani ham bu ikki buyuk iste'dod egasi ijodiy qismatida yaqinlik borligi isbotidir.

Abdulla Oripov badiiy-estetik tafakkuri takomilida nasriy asarlari, ayniqsa, hikoyalari bilan o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan Abdulla Qahhorning ham ta'siri bor. Shoir "Abdulla Qahhor" she'rida yozuvchi ijodiga bo'lgan differensial munosabatini betakror poetik ifodalaydi:

*Yo'llar ortimizda qolar edilar,
Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
Nega ular cheksiz, desam dedilar:
Bu yerdan o'tgandi Abdulla Qahhor.

Yo'llar ortimizda qolar edilar,
Cho'qqilar qolardi yuksak va qator.*

Nega ular yuksak, desam dedilar:

Bu yerdan ham o'tdi Abdulla Qahhor [Oripov 2014, 86].

She'rning ushbu dastlabki bandidagi "sahrolar" obrazi zamirida shoir ijodiy niyati o'ziga xos ifodalangani kuzatiladi. Bu obraz vositasida Abdulla Qahhor yashagan davrning murakkabligi, uning ba'zan davr tazyiqlariga bo'ysunishga majbur bo'lgani tagmatnda mahorat bilan talqin qilingan. Keyingi bandda esa ana shunday ziddiyatli zamonda ham yozuvchi o'zidan boy adabiy meros qoldira olgani "cho'qqilar" obrazi vositasida tasvirlangan.

Shoir ustoz adib shaxsiyati va ijodiga doir qarashlarini she'rlarida obrazli ifodalash barobarida adabiy maqolalarida uning asarlariga haqqoniy baho bergani e'tiborga loyiqdir. Abdulla Oripov: "Ustoz Abdulla Qahhor prozamızning eng baquvvat chinorlaridan biri edi. Lekin, ayni vaqtda, u zot she'riyatni ham g'oyat nozik tushunardi. Abdulla aka yoshligida ko'plab, aksar hajviy muxammaslar yozib e'lon qilganligini men keyinchalik bilganman. Men nasrda biror narsa yozmagan bo'lsam-da, doimo Abdulla Qahhorning shogirdi sanalardim. Demak, ustoz va shogirdlik ijodiy saboqlardan tashqari, dunyoqarashlar hamohangligi bilan ham belgilanar ekan" [Орипов 1988, 71]. Ushbu e'tirof zaminida shoir zamonasining ulug' yozuvchiga bo'lgan ehtiromi, shuning qatorida, uning adabiy-estetik olamiga xos xususiyatlarni nechog'lik nozik idrok etishi o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda akademik Matyoqub Qo'shjonovning: "Abdulla Qahhor hayotiy hodisa va voqealarning mohiyatini chuqur anglaydigan san'atkorlar metodini egallagan yozuvchilardan" [Қўшжонов 2018, 92] degan fikrlari Abdulla Oripov qarashlari bilan hamohang ekanini ta'kidlash kerak.

Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyotining yana bir zabardast namoyandasi G'afur G'ulom ijodidan ham ilhom olgan. Shoirning ustoz ijodkorga bag'ishlab yozgan "Alvido ustoz" va "Nutq" kabi she'rlari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, shoir "O'zbekiston", "Bahor" hamda Hamid Olimjonga bag'ishlab yozgan she'rlarida ham G'afur G'ulomni hurmat bilan yodga oladi. Jumladan, "Alvido, ustoz" nomli she'rida:

*So'qir yovuz o'lim, ming dod dastingdan,
Zulmatday kirdingmi she'r maydoniga.
Ajaj, sen nayzangni sanchdingmi chindan
O'zbek she'riyatni pahlavoniga, -*

deya, ustozining o'limi adabiyot uchun katta yo'qotish bo'lganini, u yashab o'tgan davr murakkab ekanini obrazli tasvirlaydi. "So'qir

yovuz o'lim" – bu o'rinda qo'llangan sifatlovchi va sifatlanmish shoir ko'nglidagi iztirob kuchini to'laqonli ifodalagan. "She'r maydoni", "ajal nayzasi", "she'riyat pahlavoni" kabi istioralar fikrning badiiy-estetik quvvatini ta'minlash barobarida muallif ijodiy niyatining ta'sirli talqiniga xizmat qilgan.

*Dardli musiqalar, ingrangiz bir-bir
O'zing ham yig'la, ey, dilda qotgan g'am.
Yorug' bu olamda bormikan, axir
Shoir vafotidan ortiqroq motam!*

Bu misralar orqali, birinchidan, ijodkor nechog'liq og'ir bir davrda yashagani anglashilsa, ikkinchidan, ulug' shoirlarning o'limi haqiqiy motam ekani ta'sirli ifodalangan. Shoirning: "G'afur G'ulom o'z safdoshlari qatorida g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi", degan fikrlari bilan mazkur she'rdagi tasvir o'rtasida kuchli hayotiy va badiiy-estetik yaqinlik borligi kuzatiladi.

Abdulla Oripov "O'zbekning o'z shoiri" maqolasida: "G'afur G'ulom chindan ham ulug' zakovat egasi edi. Buning isboti shoirning jo'shqin va dono she'riyati, buning isboti – G'afur G'ulomning tug'ma tafakkur sohibi ekanligi, buning isboti G'afur G'ulomning hech bir adibnikiga o'xshamaydigan chinakam milliy xalqchil prozasi – nasriy asarlaridir", deya adibning serqirra ijodkor ekanligi, jo'shqinligi va donoligi bilan boshqalardan ajralib turishini ta'kidlaydi. "Nutq" she'rida Abdulla Oripov:

*G'afur G'ulom – buyuk shoir, faylasuf, hakam.
G'afur G'ulom adib, notiq va sohib surur –*

deya shoirni ko'p qirrali ijodkor sifatida ulug'laydi.

Ikki buyuk shoir falsafiy tafakkuridagi bir-birini takrorlamaydigan uyg'unlik vaqt falsafasi talqinida, ayniqsa, yaqqol kuzatiladi. G'afur G'ulom: "Har lahza zamonlar umridek uzun, Asrlar taqdiri lahzalarda hal. Umrndan o'tajak har lahza uchun Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal", deya vaqtni lahza bilan o'lchab, uni mazmunli o'tkazishga doir ko'lamli falsafiy fikrni yuksak badiiyat bilan ifoda etgan bo'lsa, Abdulla Oripov: "Payt kelar, va'daning qimmatini qolmas, Muhlat bermas u dam to'lgan paymona. O'tgan bir oningni qaytara olmas, Na ko'z yosh, na afsus va na bahona" tarzida umrning har bir onini g'animat bilish zaruratini ohorli poetik xulosa darajasiga ko'tariladi. Bunday misollar Abdulla Oripov tafakkuri salafлари ijod bulog'idan suv ichgan bo'lsa ham, lekin ular an'analarini takrorlamay, o'ziga xos poetik yuksaklikka erishgani dalilidir.

Abdulla Oripov shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim Oybek

ijodiy laboratoriyasidan ham munosib saboqlar olgan. Shoirning bu ulug' adib haqidagi she'rlarida ham, maqolalarida ham unga bo'lgan chuqur ehtiromi yaqqol sezilib turadi. "Oybek haqida qo'shiq" she'rida:

*Har kalimang ma'rifatning
Ufqida oydek to'lib,
El aro topding sharaf sen,
Ustoz Oybek bo'lib -*

deb yozar ekan, uning ijodiy salohiyatiga yuksak baho beradi. Ulug' ustoz asarlaridagi har bir so'zni ma'rifat ufqidagi to'lin oyga qiyoslaydi. Shoir she'rning davomida Oybekning sha'n hayoti xayr-u soflikdan nishon ekani, she'rlari e'tiqod iymon nuri bilan yo'g'rilgani, yozuvchining goh Navoiy, goho Torobiy va Yo'lchi singari adabiy qahramonlari ila suhbat qurishi, milliy adabiyotga el-u yurt mangu rizo bo'ladigan darajada xizmat qilgani, nomi asrlar so'ngidan sado berishi haqida yozadi.

Oybekning hayot va ijod yo'li, shaxs va ijodkor sifatidagi fazilatlarini o'zaro mutanosib ekanini mana bu tarzda e'tirof etadi: "Oybek bizga g'oyat ulkan va ibratli ijodiy, insoniy meros qoldirdi. Bu merosning eng muhim jihatlari nimalardan iborat? Oybekning butun ijodi uning hayoti kabi ezgulik bilan, insonga mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgandir. Oybek qahramonlari eng ezgu ideallar uchun jangga kiradilar. Halollikni tayin etish uchun fidoyilik ko'rsatadilar. Xalq baxt-u saodati uchun kurashadilar" [Oripov 1988, 69]. Shu o'rinda Oybek singari Abdulla Oripov siymosida ham yuksak iste'dod va bemsiz odamiylik uyg'unlashib ketganini ta'kidlash kerak. Buyuk Navoiy obrazini Oybek nasrda nechog'liq yorqin va mukammal tasvirlagan bo'lsa, Abdulla Oripov she'riyatda shunchalik ta'sirli suvratlantirdi. Oybekning "O'zbekiston" she'rida O'zbekiston o'z zamonasi va yaqin o'tmish qiyosi vositasida vash etilgan bo'lsa, Abdulla Oripovning "O'zbekiston" qasidasida ona Vatanimizning kechmishi va buguni bor murakkabligi bilan betakror poetik tasvirlanadi. Boshqacha aytganda, Abdulla Oripov Oybek ijod laboratoriyasidan saboq olish barobarida badiiy ijodda uning an'alarini takomilga yetkazadi, yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitadi, poetik tafakkurning yangi darajasiga ko'taradi.

Abdulla Oripov ijodiy salohiyati takomilida latif lirik asarlar muallifi Hamid Olimjon adabiy merosining o'rni alohida. Shoirning ustoziga bag'ishlab yozgan "Hamid Olimjon xotirasiga" she'ri ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Yetimtov bag'ridan chiqqan navqiron,
Siz bu – she'rimizning eng jarang sasi.
Sizning satringizda qurmish oshyon
Uchirma qush kabi she'r ilohasi.*

Shoir Hamid Olimjonni she'riyatning "jarangdor ovozig", she'rlarini esa "Vatan qurgan qushga" o'xshatadi. Ustoz ijodkorni nurga qiyoslagan shoir she'riyatning yashab kelayotgani sababini uning badiiy kashfiyotlari bilan bog'laydi:

*Axir qancha qadim bo'lmasin dunyo
Bag'rida nur borki qarimas quyosh.*

Abdulla Oripov "Maftunkor she'riyat" maqolasida Hamid Olimjon ijodiga quyidagicha baho beradi: "Hamid Olimjonning otashin she'riyati o'zining nozik va inja ruhi, toza va beg'ubor til boyligi bilan muhtasham nazm koshonasini bugun ham bezab turibdi. Bu go'zal she'riyat haqida o'ylaganimizda ko'z oldimizdan betakror tashbihlar, latif tuyg'ularga yo'g'rilgan quyma satrlar o'ta boshlaydi" [Oripov 2019, 3]. Bu fikrlar Abdulla Oripovning Hamid Olimjon she'riyatini nechog'liq chuqur o'rgangani, shoir lirikasidagi nozik va inja ruhni yurakdan his etgani isbotidir. Shoir nazmidagi betakror tashbihlaru latif tuyg'ularga yo'g'rilgan quyma satrlaridan ilhom olganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Abdulla Oripov "O'zbekiston" qasidasida mana bunday yozadi:

*Ko'klamingdan olib sururni,
Dovruq soldi ustoz Olimjon –*

deya ulug' salafining peyzaj tasviri borasidagi yuksak mahoratiga ishora qiladi. "O'zbekiston" she'ridagi: "*Chor atrofda yoyganda gilam. Also yo'qdir bundayin ko'klam*" singari quyma satrlarni nazarda tutib, shoirning nazmiy salohiyatini yuksak darajada e'tirof etadi. Abdulla Oripov: "Hamid Olimjon lirikasi boshqa birorta shoirning lirikasiga aslo o'xshamaydi. Bu lirika marmar kabi tiniq, lekin sovuq emas", deb yozar ekan, ustozining individual ijodiy tafakkurini munosib baholaydi. Ijodda o'zigagina xos yo'l ochganini badiiy bo'yoqlarda ko'rsatadi.

Akademik Naim Karimov fikricha, Hamid Olimjon "...hayot-baxsh qudratga ega bo'lgan fikr va g'oyalarni yuksak she'riyat bilan uzviy ravishda birlashtira oladi. Uning lirikasida mujassamlangan fikr va kechinmalar kitobxon qalbini hamisha maftun etuvchi, unga estetik zavq bag'ishlovchi, uni nafosatning ilohiy olamiga olib kiruvchi shaklga egadir" [Karimov 2008, 361]. Haqiqatan, Hamid

Olimjon atigi 35 yil yashagan bo'lsa-da, bu qisqa vaqt oralig'ida yuksak badiiy-estetik quvvatga ega umrboqiy asarlar yarata oldi.

Abdulla Oripov Hamid Olimjonning latif she'riyatidan ham ko'p saboq oldi, lekin ijodda uni takrorlagan emas. Birgina qiyos: Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'rida ona Vatan madhi uning o'xshashi yo'q tabiati, beqiyos ko'klami orqali vasf etilgan bo'lsa, Abdulla Oripovning shu nomdagi qasidasida xalqimizning qadimiy va boy tarixi, buyuk siymolari obrazi, moziy voqeligining poetik tasviri vositasida butun murakkabligi, bor miqyosi bilan uyg'unlikda tasvirlanadi. Boshqacha aytganda, Abdulla Oripov Hamid Olimjon ijodiy tajribalarini davom ettirib, yangi badiiy kashfiyot darajasiga yuksaltirdi.

Abdulla Oripov "XX asr o'zbek adabiyotiga chaqmoqdek kirib kelgan" deya ta'riflanuvchi shoir Usmon Nosir xotirasiga atab "Armon" she'rini yozgan va shoir bu she'rda uning hayotdan bevaqt ko'z yumgani, ko'pchilikning diydoriga to'ymaganini aytadi:

*Nimaydi u? Ma'sum tuyg'uning
Oromiga sololgan g'avg'o?
Ne bo'lsa ham bolakay uning
Diydoriga to'ymadi aslo.*

Shoir "Ehtiyoj farzandi" kitobida Usmon Nosir haqida quyidagilarni yozadi: "Usmon Nosir shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Shoirning g'oyat qisqa umriga nazar solgan kishi juda uzoq o'ylarga tolisi shubhasizdir. Chunki bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko'rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir" [Oripov 1988, 82]. Bu fikrlar Usmon Nosir ijodi Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlarida munosib o'rin tutishi isbotidir. Lirik she'rlarida Usmon Nosir obrazi yorqin va ta'sirchan ifodalangani, maqolalarida shoir asarlarining teran tahlil etilgani Abdulla Oripovning adabiyotimizda chaqmoqday nurli iz qoldirgan bu ijodkorga bo'lgan ehtiromini va badiiy-estetik qarashlari takomilida uning ijodiy an'alaridan istifoda etganini tasdiqlaydi.

Abdulla Oripov milliy adabiyotimizning o'zigacha bo'lgan deyarli barcha shoir-u adiblari ijodiy yutuqlarini qunt bilan o'rgangan. Ular ijodidagi badiiyat sirlaridan o'zi uchun zarur xulosalarni chiqargan. Asarlarida ular erishgan muvaffaqiyatlarni yangi poetik kashfiyotlar bilan boyitgan. Shoir ustoz Mirtemir haqida, uning o'gitlari xususida "Ustoz Mirtemir saboqlari" nomli

she'rida, jumladan, quyidagicha yozadi:

*-Ishlang, - derdi Ustoz, - she'r bo'lsin ravon,
Mehnatdan qochmasin ijodkor xalqi.
Lekin kamsitmasdi bizni hech qachon,
Ustoz shuning uchun Ustozdir balki.*

Shoir bu pand-u nasihatlarini aslo unutmaydi. Ustozidan unga mehnatkashlik go'zal an'ana bo'lib o'tgan. Chunki so'zni qadrlagan, ijodda milliy ruh va yuksak badiiyat uyg'unligini mezon deb bilgan shoir bundan o'zgacha yo'l tutishi mumkin emas. Mirtemir ustozlik maqomining eng ahamiyatli jihati shogirdlarga hurmat bilan qarashi va so'zga mas'uliyat bobida ularga o'rnak bo'la olganidir. Mirtemirning zahmatdan halovat topgan ijodkor ekanini Abdulla Oripov "Shoir tabassumi" maqolasida chuqur mantiq asosida dalillaydi: "Mirtemir domlaning eng ibratli fazilatlaridan biri uning kamtarligi bilan bir qatorda, nihoyatda mehnatkashligi desam, yanglishmagan bo'lur edim. Ijod mashaqqatidan ozmi-ko'pmi xabardor bo'lgan har bir odam Mirtemir she'rlarini o'qiyotib, uning har bir satr ustida qanchalik ter to'kkanini tasavvur qilishi qiyin emas". Bu xususda Qozoqboy Yo'ldoshev ham shunday fikrlarni bildiradi: "Mirtemir olam hodisalari va odam ruhiyatini hech kim payqamaydigan yo'sinda ko'radi, boshqalarga o'xshamagan alfozda ta'sirlanadi, o'zgacha bir mantiq bilan izohlaydi, hech kim qilolmaydigan shaklda tasvir etadi" [Yo'ldoshev 2018, 58].

Abdulla Oripov ustozining xotirasiga bag'ishlangan "Karvon" she'rida:

*She'ringiz uchqur-u o'zingiz karvon,
Manzilga shoshilmay kelar edingiz -*

deb Mirtemir ijodiyotiga yuksak baho beradi va uni "karvon"ga o'xshatib, shogirdlari izidan kelayotganiga ishora qiladi.

Ijod zahmatidan lazzat topish, so'zga bo'lgan yuksak mas'uliyat, badiiy konsepsiyaning aniq va baland ekani Mirtemir va Abdulla Oripov ijodining asosini tashkil etadi. Chunki Abdulla Oripov bu borada Mirtemirga munosib izdosh bo'lishi barobarida ustozdan o'zib keta olgan nodir ijodiy salohiyat egasidir. Undagi iste'dodning boshqa ijodkorlardan nechog'liq baland ekanini his etgan Mirtemirning o'zi Abdulla Oripovga mana bunday baho bergan edi: "Abdulla Oripov. Shoir! Shoir bo'lganda ham anov-manovlardan emas. Xudo butun qilib berganlardan. Zo'r!".

Abdulla Oripov zamondoshi Erkin Vohidov to'g'risida

“Arslon chorlagandi”, “Erkin Vohidov xotirasiga” she’rlarini bitgan. Erkin Vohidov qaysidir ma’noda Abdulla Oripov bilan tuyg’ulari o’xshash ijodkor edi. Abdulla Oripov o’zi va Erkin Vohidov hayotiga nazar tashlab, hayotda o’z fikrdoshlarini topa olmay qiynalgan Erkin Vohidovning va o’z qismatiga munosabatini mana bu tarzda ifodalagan edi:

*Biz ham yuksaklarga tikkandik ko’zni,
Bizda ham bor edi matonat, bardosh.
Arslon chorlagandi qoshiga bizni,
Lekin qumursqalar bo’ldi safardosh.*

Bu o’rinda Abdulla Oripov va Erkin Vohidov shaxsiy hayoti bosib o’tgan umr yo’lidan xabardor bo’lgan o’quvchi shoir nimani nazarda tutayotganini yaxshi anglaydi. Zero, bu hayotda arslonsifatlardan ko’ra qumursqamonandlar ko’proq. Yuqoridagi satrlarda bu ikki nodir iste’dod egalarining ijodiy yuksalishiga to’g’anoq bo’lishga intilgan, ular salohiyatining yuzaga chiqmasligi uchun qo’lidan kelgan barcha harakatni qilgan ana shunday toifalarga obrazli munosabat ifodalangan. She’rning keyingi bandida shoir ijodiy safdoshini qumursqamonandlardan kelishi mumkin bo’lgan xatardan mana bu tarzda ogohlantiradi:

